

**TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI****Нортожиева Мухайё Зафар кизи**

Халқаро инновацион университети

“Педагогика ва жисмоний маданият” кафедраси ўқитувчиси

email: [nortojiyeva95@mail.ru](mailto:nortojiyeva95@mail.ru)

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada o'qituvchi faoliyati, unga qo'yilgan zamonaviy talablar, pedagogik jarayonni boshqarish va innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish yo'llari bayon etilgan. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlar, ularni qo'llash, interaktiv ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik jarayon, innovatsion faoliyat, interfaol metodlar, ilatlar, pedagogik shaxsi, boshqarish mahorati, ijodkorlik, mutaxassislik, dars, kafolatlangan natija, hamkorlik, mustaqil fikrlash, ijodiy ishlanish.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье описывается деятельность учителя, современные требования к нему, управление педагогическим процессом и способы использования инновационных образовательных технологий. Также отмечается значение интерактивных методов, их применение, особенности интерактивного обучения и значение инновационных технологий в преподавании профильных предметов.

**Ключевые слова:** Педагогический процесс, инновационная деятельность, интерактивные методы, язык, педагогическая личность, управленческие навыки, творчество, специализация, занятие, гарантированный результат, сотрудничество, самостоятельное мышление, творческий труд.

**Annotation:** This article describes the activity of the teacher, the modern requirements for him, the management of the pedagogical process and the ways of using innovative educational technologies. Also, the importance of interactive methods, their application, specific features of interactive education and the importance of innovative technologies in the teaching of specialized subjects are mentioned.

**Keywords:** Pedagogical process, innovative activity, interactive methods, language, pedagogical personality, management skills, creativity, specialization, lesson, guaranteed result, cooperation, independent thinking, creative work.

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar jarayonida uzluksiz ta'lim tizimiga qo'yilgan zamonaviy talablardan biri o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish va ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirishdan iborat. Hozirgi kunda eski an'anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglashda zerikish paydo bo'ladi va darsdagi ularning faolligi yetarli bo'lmaydi. Yoshlarimizni fikrlashi va tafakkuri bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga nisbatan ancha baland va tezdir. Agar pedagog yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lmasa, har bir darsga ijodiy yondashmasa va tafakkuri yoshlardanda tez bo'lmasa, uning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo'lib qoladi. Shu sababli, bugungi kunda zamonaviy pedagogga qo'yilgan talablardan biri ham pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati, interaktiv o'qitish usullari,

ularni mashg'ulot davomida qo'llash yo'llari, zamonaviy ma'ruzalar, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, masofaviy va korporativ ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'limning didaktik asoslarini ham nazariy va amaliy jihatdan bilish, tushunish hamda qo'llashdan iborat.

O'qituvchi pedagogik faoliyati davomida yaxlit pedagogik jarayonda o'quvchining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalashiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim tizimida yoki o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natija olish maqsadi ko'zlanadi [1]. Innovatsiyalarning har qanday yangiliklardan farqi shuki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash va ta'lim samaradorligini oshirishda bevosita interfaol metodlarning ahamiyati katta va bu metodlar darsda o'quvchilar faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar – jamoa bo'lib fikr yuritish, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshirilishidir.

Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi. O'quv mashg'ulotlardagi o'qituvchining asosiy e'tibori talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, olingan bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotda qanday qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish kabilarga qaratiladi [2]. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda talabalarning bevosita faoliyat ko'rsatishlari talab etiladi. Bu muammoning yechimi boshqaruvga asoslangan innovatsion texnologiyaning qo'llanishi bilan bog'liqdir.

Innovatsion texnologiyalar – pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Innovatsion ta'lim – bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim – tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim – tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi [3].

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish bugungi ta'lim tizimiga qo'yilgan asosiy talablardan biridir, chunki har bir bo'lajak mutaxassis o'z sohasini mukammal bilmasa jamiyat rivoji va taraqqiyotida o'z o'rnini topishi qiyin kechadi. Shu sababli kasbiy sohada mukammal bilimga ega bo'lish, uning barcha sir-sinoatlarini puxta o'zlashtirish bu mahoratli ustoz tajribasi va innovatsion faoliyatiga bevosita bog'liq jarayondir. O'qituvchi va talabaning mo'ljallangan faol o'zaro harakati o'quv-pedagogik jarayonining muvaffaqiyatli harakatini aniqlaydi [4]. Agarda mahoratli o'qituvchining faoliyati orqali dars mashg'ulotlari to'g'ri loyihalashtirilib, dars senariysida talabalar harakatining qat'iy ko'rsatmalarining o'rnini bo'lsa, unda talabalarning algoritmlashgan harakatlari bilan ularning muvofiqligi birmuncha to'liq bo'ladi. Agarda texnologiya talabalar harakatida ba'zi erkinliklarni mo'ljallasa, unda ko'rsatilgan va amaliy harakat mosligi o'quv jarayonining boshqaruvini to'g'rilash yo'llari orqali erishiladi. Bunda har bir mashg'ulotni olib borishning o'zi bir-biriga bog'liq bo'lgan «Kirish», «Asosiy» va «Yakuniy» bosqichlari mavjud.

**Kirish bosqichi** o'z navbatida bir-birini to'ldirib turadigan tashkiliy boshlanish, maqsad va vazifalarni belgilash, tayanch bilimlarni faollashtirish kichik qismlarni qamrab oladi.

Tashkiliy boshlanish qism. Bu qismda o'qituvchining talabalar bilan salomlashishi, ularning davomatini va darsga tayyorgarliklarini tekshirishi o'tkaziladi. Lekin bu darsning asosiy qismiga kirmaydi.

Maqsad va vazifalarni belgilash qism. Talabalarni mashg'ulot mavzusi, maqsadi, ish vazifalari va ularning baholash usullari bilan tanishtiriladi. Vazifalar aniqlashtiriladi va o'quv faoliyat holati yaratiladi.

Tayanch bilimlarni faollashtirish qismi. O'tilgan mavzu bo'yicha talabalarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasi nazariy testlar yoki bilimlarni baholashning boshqa turlari orqali baholanadi.

**Asosiy bosqich** ham o'zaro bog'liq bo'lgan yangi materialga kirish, o'quv materialini mustahkamlash tarkibiy qismlarni qamrab oladi.

Yangi materialni o'rganishga kirish qismi. Yangi mavzuning mantiqiy tuzilish chizmasi bo'yicha yangi materialni o'rganiladigan asosiy unsurlari yuzasidan talabalarga tushuntirishlar, ushbu yangi o'quv materialini kichik o'quv guruhlar tarkibida topshiriq savollari orqali o'zaro o'rganish va bir-birlarini o'qitish bo'yicha yo'l-yo'riqlar beriladi.

O'quv materialini mustahkamlash qismi. O'qituvchi tomonidan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun amaliy faoliyat tashkil etiladi hamda uning vazifalari, amaliy topshiriq mazmunlari, ish o'rinlari va ularda amalga oshiriladigan amaliy ishlarni bajarish yo'llari tushuntiriladi, ko'rsatiladi. Shu bilan birga texnika xavfsizligi qoidalari va mashg'ulot jarayonida ularga rioya etish bo'yicha yo'riqnomalar beriladi. Ish faoliyatini boshlashga ruxsat beriladi [5].

**Yakuniy bosqichda** o'qituvchining o'quv guruhida shaxsiy kuzatishlari va o'quv ustasining mulohazalari asosida mashg'ulot tahlili o'tkaziladi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga qilish mumkin: innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlardan samarali foydalanish jarayoni muhim ahamiyatga ega va darsning sifat, samaradorligini oshiradi. Shuningdek, darsning maqsadi sifatida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish vazifalariga erishish, pedagogik jarayonni mohirlik bilan boshqarishda muhim omil hisoblanadi. Demak, innovatsion ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish orqali darsda belgilangan maqsaddan kutilgan natijani o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda erishish ta'minlanadi. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik faoliyati, ijobiy natijasi, mustaqil fikrlashi, ijodiy ishlashi, izlanishi, tahlili va xulosa chiqarish jarayoni yanada muvofiqlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 150 b.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.